

QUROLLO KUCHLARDA TEXNIK TA'MINOT MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDAGI TIZIMLI MUAMMOLAR VA ULARNI YECHIMI

Kuzibayev Odil Tajibayevich

O'R HX va MU serjantlar tayyorlash oliy maktabining moddiy-texnik ta'minot kafedrası texnik tayyorgarlik sikli boshlig'i, podpolkovnik, Samarqand shahri

Annotasiya: Ushbu maqolamda Qurolli Kuchlar qurol-aslaha, harbiy texnika va axborot-kommunikasiya vositalariga tayanadi. Bu esa texnik ta'minot mutaxassislarining bilimli, tajribali va mas'uliyatli bo'lishini talab qiladi. Ammo amaliyotda ularni tayyorlash jarayonida qator tizimli muammolar mavjud. Ularni bartaraf etish harbiy salohiyatni oshirish va armiyaning jangovar barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: jangovar tayyorgarlik, harbiy harakatlar, texnik, mutaxassis, qurol-aslaha.

Texnik ta'minot mutaxassislarini tayyorlashdagi asosiy tizimli muammolar:

1. O'quv dasturlarining eskiligi va zamonaviy texnika talablariga mos emasligi, texnik adabiyotlarni yetishmovchiligi, davlat tilida chop etilgan adabiyotlar soni cheklanganligi, jangovar texnika parklarini ayrim elementlarini yangilanmaganligi, o'quv dasturlari zamonaviy qurol-aslaha modellariga mos emasligi, tayyorlashning katta qism nazariyaga yo'nalgan, amaliyotning kamligi.

Natijada mutaxassis bitirganda zamonaviy tanklar, bronetransportyorlar, HHM komplekslari, radioelektron vositalar bilan ishlashda qiynaladi.

2. Amaliyot bazasining yetarli emasligi mutaxassislarning asosiy muammosi — o'tkazilayotgan amaliy mashg'ulotlarni ayrim sabablarga ko'ra kamligi. Ayrim qo'shinlarda texnik ta'mirlash ustaxonalari yetarlicha zamonaviy uskunalar bilan jihozlanmagan. Real texnik modellar soni cheklanganligi (kamligi) zamonaviy trenajyorlar (simulyatorlar) yetishmasligi. Bu esa mutaxassislarni xizmatga kelganda qaytadan o'qitishga majbur qiladi.

3. Mutaxassislar tayyorlaydigan o'qituvchilarning malaka muammolari mavjudligi ayrim o'qituvchilar (ustozlar):

yangi qurol-aslaha va harbiy texnikalardan qisman xabardor emas, modernizasiya jarayonlariga moslashmagan, IT-infratuzilma va raqamli texnologiyalar bo'yicha tajribaga ega emasligini misol qilib olsak bo'ladi.

Holbuki, texnik ta'minot sohasi doimiy ravishda zamonga qarab yangilanib bormoqda.

4. Texnik adabiyot va metodik resurslar kamligi ayrim harbiy qismlarda:



texnik hujjatlar davlat tilida to'liq yo'qligi, modernizatsiya texnika uchun qo'llanmalar yetarli emasligi, eski apparatlar bo'yicha hujjatlar eskirib ketgan. Natijada haydovchi askarlar va serjantlar texnika bilan ishlashda qiynaladi.

5. Texnik mutaxassislar motivatsiyasining pastligi hozirgi tahlikali zamonda texnik ta'minot-mas'uliyati katta, javobgarligi yuqori va jismoniy mehnati ko'p bo'lgan sohadir. Ammo:

rag'batlantirish kamligi, murakkab sharoitda ishlash, ortiqcha mas'uliyat muvofiq mutaxassislar oqimining kamayishiga olib keladi.

6. Kadrlar tanlovidagi tizimli kamchiliklar jismoniy kuch talab qilish o'rne bo'lmagan holda noto'g'ri baholash, psixologik sinovlar yetarli emas, analitik

va texnik fikrlashni aniqlash bo'yicha testlar sust. Natijada kasbga mos bo'lmagan nomzodlar kirib qolishi mumkin.

7. Taqsimot va joylashtirish muammolari bu kadrlarni joylashtirishda malakali kadrlarni noto'g'ri bo'linmaga yuborish, mutaxassisni o'qigan texnika turi bilan ishlamaydigan qismga tayinlash, tajribasiz xodimni murakkab texnika bo'limiga qo'yish kabi muammolar uchraydi.

Xulosa qilib aytganda hozirda Qurolli Kuchlarimizda olib borayotgan izchil islohatlarga tayanib qo'shinlarni bosqichma-bosqich zamonaviy qurol-aslaha va harbiy texnikalar bilan butlash ishlari yuqori saviyada olib borilmoqda. Qurolli Kuchlarda texnik ta'minot mutaxassislarini tayyorlash — armiyaning ishonchli va uzluksiz harakatini ta'minlovchi strategik vazifadir.

Mavjud tizimli muammolar yechim topsa texnika ishdan chiqishi kamayadi,

jangovar tayyorgarlik uzluksiz ta'minlanadi, qismlar mustaqil va tezkor harakat qiladi, Qurolli Kuchlarning umumiy qudrati ortadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagilarni taklif qilaman:

1. O'quv dasturlarini modernizatsiya qilish, NATO va rivojlangan davlatlar standartlariga mos dasturlar joriy etishni.

2. Yangilangan texnikalar asosida yangi modullar yaratish, nazariya va amaliyotning mutanosib balansini ta'minlashni (40% nazariya – 60% amaliyot).

3. Amaliyot bazasini kuchaytirish, harbiy qismlarda modern texnik markazlar qurish, har bir yo'nalish bo'yicha zamonaviy simulyatorlar joriy etish, eskirgan texnika o'rniga o'quv maqsadlarida yangi texnika maketlari olishni.

4. O'qituvchilar malakasini oshirish, ularni xorijiy harbiy o'quv markazlariga stajirovkaga yuborish, zamonaviy texnika—drone, PVO, radioelektron kurash, signalizatsiya tizimlari bo'yicha qayta tayyorlash, STEM va IT texnologiyalar bo'yicha maxsus kurslar ochishni.

FOYDALANILGAN MANBALAR



1. А. Гайдай, А. И. Техническое обеспечение: проблемы и решения / А. И. Гайдай // Арсенал. Военно-промышленное обозрение. – 2024. – № 5. – С. 112 – 121.
2. <https://www.google.co.uz/>. 12.05.2024 y.
3. <http://militaryarticle.ru/voennaya-mysl> 10.05.2025 g.

